

"O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi litsenziatlarni prekursorlar muomalasi bilan bog'liq faoliyatining holati

// 10.03.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-tizimidagi-litsenziatlarni-prekursorlar-muomalasi-bilan-bogliq-faoliyatining-holati>



2023-yilning 10-mart kuni "O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi malakali mutaxassislari tomonidan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Qonun va qarorlar, jumladan, prekursorlarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilishi ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni, prekursorlarni saqlashga doir muhim texnik talablar va boshqalar bo'yicha "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari mas'ul xodimlari uchun videokonferensaloqa orqali o'quv mashg'uloti o'tkazildi. Unda ishtirokchilarga soha mutaxassislari tomonidan mavzu bo'yicha batafsil ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, o'quv mashg'uloti qatnashchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.